



UDK: 37.022:37.015.3

Sadoqat ALLANAZAROVA,

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Urganch davlat universiteti prof.v.b M.Djumaniyazova taqrizi asosida

INTELLECTUAL DEVELOPMENT OF LEARNERS' PERSONALITIES BASED ON BILINGUALISM

Annotation

This article analyzes the impact of bilingualism on students' intellectual and personal development based on scientific-theoretical and empirical research. It also examines historical approaches, including the concepts of scholars such as I. Epstein, L.S. Vygotsky, W. Lambert, E. Peal, and J. Cummins, comparatively studying the positive and negative aspects of bilingualism. The article analyzes the developmental mechanisms of bilingual individuals based on Cummins' theories of BICS (Basic Interpersonal Communication Skills) and CALP (Cognitive Academic Language Proficiency).

Keywords: bilingualism, two-language proficiency, intellectual development, cognitive activity, BICS, CALP, cognitive flexibility, language competence, learning process, psycholinguistics.

ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНОЕ РАЗВИТИЕ ЛИЧНОСТИ УЧАЩИХСЯ НА ОСНОВЕ БИЛИНГВИЗМА

Аннотация

В данной статье на основе научно-теоретических и эмпирических исследований анализируется влияние феномена билингвизма – двуязычия на интеллектуальное и личностное развитие учащихся. Также рассматриваются исторические подходы, в том числе концепции таких ученых, как И. Эпштейн, Л.С. Выготский, В. Ламберт, Э. Пил, Дж. Камминс, и проводится сравнительное изучение положительных и отрицательных аспектов двуязычия. В статье анализируются механизмы развития билингвальной личности на основе теорий Камминса о BICS (базовых коммуникативных навыках) и CALP (когнитивно-академической языковой компетенции).

Ключевые слова: билингвизм, двуязычие, интеллектуальное развитие, когнитивная деятельность, BICS, CALP, когнитивная гибкость, языковая компетенция, учебный процесс, психолингвистика.

BILINGVIZM ASOSIDA TA'LIM OLUVCHILAR SHAXSINING INTELLEKTUAL RIVOJLANISHI

Annotatsiya

Mazkur maqolada bilingvizm – ikki tillilik hodisasining o'quvchilar intellektual va shaxsiy rivojlanishiga ta'siri ilmiy-nazariy va empirik tadqiqotlar asosida tahlil qilingan. Shuningdek, tarixiy yondashuvlar, jumladan, I. Epshteyn, L.S. Vigotskiy, V. Lambert, E. Peal, J. Kammins kabi olimlarning konsepsiyalarini tahlil qilib, ikki tillilikning ijobiy va salbiy jihatlarini qiyosiy o'rganadi. Maqolada Kamminsning BICS (asosiy kommunikativ ko'nikmalar) va CALP (kognitiv-akademik til kompetensiyasi) nazariyalari asosida bilingv shaxsning rivojlanish mexanizmlari tahlil etiladi.

Kalit so'zlar: bilingvizm, ikki tillilik, intellektual rivojlanish, kognitiv faoliyat, BICS, CALP, kognitiv moslashuvchanlik, til kompetensiyasi, o'quv jarayoni, psixolingvistika.

Kirish. Ikki tillilikni o'rganishning asosiy jihatlaridan biri bilingvning kognitiv faoliyatini empirik va nazariy jihatdan tadqiq etishning bevosita amaliyoti hisoblanadi. Uzoq vaqt davomida ikki tillilik afzallik yoki kamchilik ekanligi haqidagi masala dolzarbligicha qolgan. Ikki tilni bilishning barcha ijobiy tomonlari shak-shubhasizdir. Biroq, ikki tilli muhit, ikki tilli ta'lim yoki tarbiya sharoitida kechuvchi bolalar nutqi va kognitiv ontogenezi olimlar oldiga ko'plab savollarni qo'yadi. Bu savollar, avvalo, ikki tillilik va tafakkurning o'zaro bog'liqligi doirasida bo'lib, quyidagilarni o'z ichiga oladi: ikkinchi tilni o'zlashtirish birinchi tilning rivojlanishiga salbiy yoki to'xtatuvchi ta'sir ko'rsatmaydimi; ikki tillilik natijada nafaqat ikkinchi, balki birinchi tilning ham to'liq rivojlanmasligiga olib kelmaydimi; ikki til tizimini o'zlashtirish bolaning umumiy aqliy rivojlanishiga ta'sir qilmaydimi, bunday holda ikki tilli bola rivojlanishda bir tilli tengdoshidan orqada qolmaydimi va hokazo.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Bilingvizmning bolaning aqliy rivojlanishiga ta'siri masalasi ilk bor assotsiativ psixologiya maktabi vakili I. Epshteyn tomonidan ko'tarilgan. Ushbu masalaning o'rganilish tarixida shartli ravishda uch davr ajratib ko'rsatiladi. Birinchisi va eng qadimgisi - yigirmanchi

yllarda amerikalik tilshunoslarning bir qator tadqiqotlarida aks etgan salbiy natijalar davri. I. Epshteyn tushunchasida tafakkur g'oyalari va so'zlar o'rtasidagi assotsiatsiyadan iborat. G'oya va chet tilidagi so'z o'rtasida bevosita assotsiatsiya bo'lishi mumkin. Biroq I. Epshteynning fikricha, bir tilni bilish keyingi tillarni o'rganishga xalaqit beradi, chunki ikki tilli shaxsda mavjud bo'lgan ko'plab kesishuvchi so'z assotsiatsiyalari, ayniqsa "ifoda" sohasida, ya'ni nutq va yozuvda bir-biriga aralashib ketadi. Shunday qilib, I. Epshteyn fikriga ko'ra, ikki tillilik g'oyalarni shakllantirish va ularni uzatish uchun to'siq hisoblanadi [4].

Tadqiqot metodologiyasi. Ko'rsatilgan masalani ishlab chiqish nafaqat nazariy, balki katta amaliy ahamiyatga ham ega bo'ldi, chunki ikki tilli ta'lim muammolari tobora dolzarb tus oldi. O'quvchilarning intellektual va shaxsiy rivojlanishiga ikki tillilik ta'sirini muhokama qilish maqsadida Lyuksemburgda ikkinchi xalqaro tarbiyachilar anjumani tashkil etildi. Anjumandagi munozaralar asosan Sayer va uning hamkasblarining ilmiy ishlariga tayanardi. Ular ko'p yillik tadqiqotlar natijasida ikki tilli maktab o'quvchilarining ta'lim va aqliy rivojlanish testlarida bir tilli tengdoshlariga nisbatan sustroq natijalar ko'rsatganini aniqlashgan edi. Bir tilli va ikki

tilli bolalar guruhining aqliy qobiliyatini baholashga mo'ljallangan IQ (intellekt koeffitsiyenti) testi bir tilli bolalarning sezilarli ustunligini ko'rsatdi. Ushbu va boshqa natijalarni ko'rib chiqqach, Lyuksemburg anjumani ishtirokchilarining aksariyati ona tilidan, oila tilidan farq qiladigan tilda ta'lim berish aqliy rivojlanish va shaxs shakllanishi uchun zararli, degan xulosaga keldilar. Shu bois, ikkinchi tilni o'rgatishni iloji boricha kechroq boshlash tavsiya etildi.

Bu qarash yigirmanchi asrning o'rtalarigacha ustunlik qilib keldi. Biroq, kam sonli tadqiqotlarda "neytral davr" ilgari qo'llanilgan usullarning nomukammalligi haqida xulosalar keltirilgan. Ushbu tadqiqotlar natijasida ikki tilli va bir tilli sinovdan o'tkazilganlarning aqliy va nutqiy rivojlanish darajasi deyarli bir xil ekanligi aniqlandi.

I.Epshteynning bilingvizmning shaxs ma'naviy rivojlanishiga zararli ta'siri haqidagi qat'iy xulosalariga ikki tilli oilalarda bolalar rivojlanishining lingvistik tavsifi qarama-qarshi keldi. Bunday oilalarda bolalarning bir vaqtning o'zida ikki tilda nutqni o'zlashtirib, normal aqliy rivojlanishni saqlab qolishlari aniqlangan [4].

D.T.Sperl kollejlarining ikki tilli talabalari aqliy rivojlanishda bir tilli talabalardan farq qilmasligini, bundan tashqari, kasbiy sohada ulardan biroz ustunroq, ilmiy faoliyatda esa sezilarli darajada yuqori ekanligini aniqladi.

V. Vildomek bilingvizm bolaning til va intellektual sohasini boyitishi yoki aksincha, kambag'allashtirishi mumkinligini ta'kidlaydi. U. Lamber bir tilli o'quvchilarni o'xshash ijtimoiy-madaniy darajadagi teng imkoniyatli ikki tilli o'quvchilar bilan taqqoslaganda, ikki tillilar aqliy rivojlanish testlarida, ayniqsa fikrlashning o'ziga xosligi va aqliy moslashuvchanlikni talab qiladigan topshiriqlarda, bir tillilardan yaqqol ustunlikka ega ekanliklarini ko'rsatib berdi. Shunga o'xshash xulosalarga Balkan va boshqa bir qator tadqiqotchilar ham kelishgan.

M. Siguan va U.F. Makki Sayer va U. Lamber natijalaridagi farqlarni sinovdan o'tkazilganlarning ijtimoiy-madaniy darajalaridagi tafovut bilan bog'laydilar. Sayer o'rgangan ikki tilli shaxslar ular bilan taqqoslangan bir tilli bolalarga nisbatan pastroq ijtimoiy darajaga mansub edilar. Aksincha, U. Lamber va Balkan sinovdan o'tkazgan shaxslarning ijtimoiy-madaniy darajalari bir xil bo'lgan. Shubhasiz, bunday taqqoslash aniq xulosalar chiqarishga imkon bermaydi. Ikki tillilik intellektual rivojlanishga ta'siri haqidagi xulosalarning to'g'riligiga shubha tug'diradi, chunki tajriba va nazorat guruhlarining aql darajalaridagi farqlar ikki tillilik yoki ijtimoiy-madaniy daraja bilan emas, balki boshqa sabablar bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Umuman olganda, M. Siguan va U.F. Makki ikki tilli ta'lim o'quvchining rivojlanishiga ijobiy yoki salbiy ta'sir ko'rsatadi degan savolga mutlaq javob berish mumkin emas va bu o'quvchilarning qobiliyatlari, ta'lim muassasalarining pedagogik imkoniyatlari, aholining ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy darajalari kabi ko'plab omillarga bog'liq degan xulosaga kelishadi [1].

L.S. Vigotskiy butunlay qarama-qarshi g'oyani ilgari suradi - ko'p tillilik inson tafakkuri va rivojlanish darajasiga faqat ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Muallif ijobiy ta'sirning bir jihati sifatida, bir fikrni bir nechta tilda ifodalash qobiliyati bolaga o'z tilini ko'plab boshqa tizimlar orasida muayyan bir tizim sifatida ko'rish imkonini berishini ta'kidlaydi. Bu esa uning lingvistik faoliyatida o'ziga xos ongillikning shakllanishiga olib keladi [3].

1962-yilda L.S. Vigotskiyning ingliz tiliga tarjima qilinib, "Thought and Language" kitobida nashr etilgan g'oyalari bilingvizmning aqliy rivojlanishga ta'sirini ilmiy baholashning "ijobiy" davriga oid Kanada, Germaniya va Fransiyada olib borilgan bir qator muhim tadqiqotlarga bevosita ta'sir ko'rsatdi.

"Ijobiy davr" kanadalik olimlar V. Lambert va E. Pol ismlari bilan bog'liq. Monrealdagi katta guruhdagi maktab o'quvchilari ustida olib borilgan keng qamrovli kuzatish va tadqiqot nutq va tafakkur ko'nikmalarini baholashda har qanday xatoliklarni yuqori darajada bartaraf etadigan testlar majmuasiga asoslangan edi. Bu tadqiqot mualliflarni quyidagi xulosalarga olib keldi:

Ikki tilli bolalarda og'zaki va og'zaki bo'lmagan testlar natijalariga ko'ra, aqliy rivojlanish darajasi bir tilli tengdoshlariga nisbatan yuqoriroq.

Ikki tilli bolalarda fazoviy tasavvurga nisbatan fikrlash moslashuvchanligi va tushunchalar bilan ishlashda ijodiy yondashuvning ustunligi yaqqolroq namoyon bo'ladi.

Ikki tilli bolalar ko'plab alohida yoki bir-biridan mustaqil fikrlash qobiliyatlariga ega bo'lib, bu ularga testlar orqali qo'yilgan vazifalarni yechishda xilma-xil va moslashuvchan yondashuvlar bo'yicha bir tilli bolalarga nisbatan ustunlik beradi [2].

E. Pol va U. Lambertning tadqiqotlaridan so'ng ikki tillilikning bolaning aqliy rivojlanishiga ijobiy ta'sirini tasdiqlovchi bir qator ishlar e'lon qilindi. Turli mamlakatlarning va turli til kombinatsiyalarini o'rgangan tadqiqotchilar ikki tilli bolalarning kognitiv ustunligining ko'plab jihatlarni aniqladi va batafsil yoritdi. Bunday jihatlarda orasida ikki tilli bolalarning so'zlar o'rtasidagi semantik munosabatlarga "sezgirligi", umumlashtiruvchi xulosalar chiqarish qobiliyati, og'zaki transformatsiya va almashtirish bilan bog'liq masalalarni yechish qobiliyati, og'zaki bo'lmagan muammolarni hal qilishda murakkab tahliliy strategiyalardan foydalanish qobiliyati kabilarda tilga olingan.

Tahlil va natijalar. Tadqiqotchilarning xulosalarini umumlashtirib, ikki tilli bolalar ustunligining asosiy xususiyatlari fikrlashning o'ziga xos "moslashuvchanligi," turli darajadagi ma'lumotlar bilan ishlash qobiliyati va ijodiy yondashuvdan iborat ekanligini kuzatish mumkin.

O'quvchilarning intellektual rivojlanishiga ikki tillilik ta'siri muammosi bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar ikki tilli bolaning tillarni bilish darajasining ahamiyatini tasdiqladi. Shu munosabat bilan, o'qitish jarayonida ikki tilli shaxsni shakllantirishning quyidagi xususiyatlari ayniqsa muhimdir:

Stixiyali ikki tillilik ikkinchi tilni chala va noto'g'ri o'zlashtirishga yoki hatto "yarim tillilik"ka, ya'ni nafaqat ikkinchi tilni, balki o'z ona tilini ham noto'g'ri egallashga olib keladi.

Bevosita kundalik muloqot orqali (ayniqsa, ko'p millatli aholi punktlarida) ko'pincha aloqada bo'lgan tillarning adabiy shakllari emas, balki oddiy so'zlashuv tili o'zlashtiriladi. Oddiy so'zlashuv tilining o'ziga xos xususiyati shundaki, u adabiy til yoki standartlashtirilgan shevadan farqli o'laroq, me'yorlashtirilmagan, barqaror emas va juda cheklangan lug'at boyligiga ega.

O'zaro ta'sirlashuvchi tillarning interferensiyasi adabiy til me'yorlaridan tobora uzoqlashib borayotgan nutq qo'llanishining noaniq me'yorlarini yanada beqarorlashtiradi.

Til malakasini shakllantirish va bir nechta tilni mukammal egallashda maktabning ahamiyati juda katta. Ta'lim jarayonida o'quvchi tillardan to'g'ri foydalanish ko'nikmalarini egallaydi, ularni taqqoslash imkoniyatiga ega bo'ladi, bu esa katta ahamiyatga ega.

"Chala tillilik"ning sababi ikki tillilik emas, balki tegishli shaxslarning madaniy saviyasi pastligi hamda o'qitish va o'rganish sifatining yetarli emasligi hisoblanadi.

Rus bo'lmagan millatlar uchun rus tilini o'zlashtirish imkonsiz emas, ammo ona tilini mukammal bilmasdan bu juda qiyin kechadi [5].

Olimlar Kammins, D.K. Porshe, T. Skatnab-Kangas va P. Toukoma ikki tillilik va tafakkurning o'zaro ta'sirini

o'rganishni davom ettirib, ikki tilli muhit ta'lim bola shaxsining nutqiy va aqliy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadigan sharoitlarni aniqlashni maqsad qilib qo'yanlar. Masalaning bunday qo'yilishida bir til tizimi doirasidagi funksional kompetensiyalarning uyg'unlashuvi va ularning boshqa til bilan o'zaro ta'siri shartlari hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi[7]. Shu tariqa, Kammins lingvistik kompetensiyaning ikki jihatini ajratib, ilmiy muomalaga ikkita yangi atamani kiritadi: "BICS" (basic interpersonal communicative skills) – kundalik muloqotning asosiy kommunikativ ko'nikmalari va "CALP" (cognitive academic language proficiency) - kundalik muloqot vaziyatlaridan tashqarida zarur bo'lgan kognitiv-akademik til kompetensiyasi. BICS va CALP o'rtasidagi farqni yanada aniqroq ko'rsatish uchun Kammins aysbergning shartli tasvirini taklif etadi. Aysbergning suv ustidagi qismida tushunish va gapirish kabi lingvistik ko'nikmalar, suv ostida esa tahlil va sintez qilish qobiliyatlari joylashgan. Asosiy til bilimlari (grammatika, talaffuz, leksika) ham "aysbergning ko'rinadigan qismi"da joylashgan bo'lib, pastki qismida esa tilning semantik va funksional vositalarini o'zlashtirish darajasini o'lchash qiyin bo'lgan jihatlari mavjud [6]. Kammins til kompetensiyasini BICS va CALPga ajratishdan tashqari, o'z nazariyasiga kontekst va kognitiv qiyinchilik darajasi tushunchalarini ham kiritadi. Uning fikricha, ayrim kommunikativ vazifalar kognitiv qiyinchilik tug'dirmaydi, ayniqsa ular noverbal muloqot vositalari yoki o'ziga xos vaziyatli qoliqlar yaratuvchi og'zaki kontekst bilan birga kelsa. Boshqa vaziyatlar esa "kontekstdan tashqari" bo'lib, muloqot ishtirokchilari uchun katta kognitiv yukni keltirib chiqarishi mumkin. Masalan, do'konda xarid qilish yoki mehmonxonada xona buyurtma qilishdagi oddiy kommunikativ vaziyatlar ma'lum bir kontekstual andozaga ega bo'lib, ishtirokchilardan jiddiy kognitiv vazifalarni talab qilmaydi va shu bilan BICS kompetensiyasi doirasida qoladi. Aksincha, maktab darslarida o'quv ma'lumotlarining jadal oqimi yuqori darajadagi kognitiv kompetensiyani (CALP) talab etadi, chunki bunday ma'lumotlar mavhum mazmun, ya'ni kontekstual tayanch yo'qligini o'z ichiga oladi. Shu sababli, maktab o'quv materialini muvaffaqiyatli o'zlashtirishning asosiy sharti o'quvchida yetarli darajada rivojlangan CALP kompetensiyasining mavjudligidir.

Bilingvanning birinchi va ikkinchi tili o'rtasidagi munosabat darajasi hamda til malakasini o'rganib, Kammins shunday xulosaga keldi: bolaning ikkinchi tildagi malaka darajasi ko'p jihatdan uning ona tilidagi rivojlanish darajasiga bog'liq. Ushbu farazni ikki tilli ta'lim nazariyasiga tatbiq etganda, quyidagi yondashuv maqsadga muvofiq ko'rinadi: ta'limning dastlabki bosqichi bolaning ona tilida olib boriladi, ikkinchi tilni o'zlashtirish esa uning fikrlash va til ko'nikmalari yetarli darajada rivojlangandan so'ng amalga oshiriladi. Buning natijasida kognitiv tuzilmalar ona tilidan ikkinchi tilga o'ziga xos tarzda ko'chadi.

Xuddi shunday materialga asoslangan chegara darajasi nazariyasi (the Threshold Theory) ham o'zaro bog'liqlik gipotezasi singari bilingvizmning shaxs intellektual rivojlanishiga ijobiy ta'sirining sabablari va qonuniyatlarini aniqlashga qaratilgan. U bilingvizmning inson kognitiv qobiliyatlariga ijobiy ta'siri boshlanadigan muayyan nuqtani topishga e'tibor qaratadi. Ushbu nazariyaga ko'ra, ikki tilli bola o'z rivojlanishida ma'lum chegaralarga yetishi kerak, shundagina ikki tillilik ijobiy ta'sir ko'rsata boshlaydi. Bunday ijobiy ta'sir boshlanishining asosiy sharti shuki, avvalo birinchi tilda yetarli darajadagi kompetensiyaga erishish lozim. Shu bilan birga, tadqiqotchilar ikkita bo'sag'a darajasi - quyi va yuqori mavjudligini taxmin qilishadi. Quyi darajaga erishish ikki tillilikni salbiy ta'siridan saqlanishga yordam bersa, yuqori daraja esa uning ijobiy ta'sirini ta'minlaydi. Birinchi bo'sag'aga ona tilidagi og'zaki nutq rivojlanishi ikkinchi til bilan bir qatorda hech qanday to'siqlarsiz davom etishi mumkin bo'lganda erishiladi. Ikkinchi bo'sag'aga erishish esa o'qish ko'nikmalarini rivojlantirish bilan bog'liq [6].

Ikki tillilik va bolaning aqliy rivojlanishi o'rtasidagi o'zaro aloqa nazariyalari ishlab chiqilgan dastlabki empirik materialdan tashqari Skutnabb-Kangas & Toukomma, ushbu farazlarni tasdiqlash mumkin bo'lgan bir qator keyingi tadqiqotlar o'tkazildi. Bular qatoriga GFR maktab ta'limi tizimida yugoslav bolalarining til integratsiyasi, yunon-nemis va turk-nemis bolalar ikki tilliligi bo'yicha o'tkazilgan tadqiqotlar kiradi.

Bizning fikrimizcha, yuqoridagi xulosalarga qo'shilgan holda, ikki tillilikning o'quvchilar aqliy qobiliyatiga ijobiy ta'sirining yana bir muhim sharti ona tili va ikkinchi tilda maqsadli rivojlantiruvchi ta'lim tizimini yaratishdir. Bunda, birinchidan, ko'rsatilgan ketma-ketlikka rioya qilish, ikkinchidan, o'qitish jarayonida birinchi va ikkinchi tillarning ramziy kodlarini jalb etish va faollashtirish zarur.

Xulosa. Ikki tillilikning ta'lim oluvchilar intellektual rivojlanishiga ta'siri bir yoqlama baholab bo'lmaydigan murakkab psixolingvistik hodisadir. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bilingvizmning ijobiy samarasini ta'minlash uchun quyidagi shartlar muhim:

- birinchi tilning yetarli darajada shakllanganligi;
- o'quv jarayonida tillar o'rtasidagi funksional muvozanatni saqlash;
- o'qitishning ijtimoiy-madaniy sharoitini hisobga olish;
- ona tili va ikkinchi tilda bosqichma-bosqich rivojlantiruvchi ta'lim tizimini yaratish.

Shu sharoitda bilingv ta'lim o'quvchining tafakkur moslashuvchanligini, ijodiy yondashuvini va kognitiv qobiliyatlarini kengaytiradi. Bilingvizm shaxs intellektual rivojining faollashtiruvchi omili sifatida qaralishi lozim.

ADABIYOTLAR

1. Siguan M., Mackey W. F. Bilingualism and Education. Oxford: Pergamon Press, 1986.
2. Peal E., Lambert W. The Relation of Bilingualism to Intelligence. Psychological Monographs, 1962.
3. Vigotskiy L.S. Thought and Language. Cambridge: MIT Press, 1962.
4. Epstein I. The Influence of Bilingualism upon the Associative Process. American Journal of Psychology, 1915.
5. Saer D. J. The Effect of Bilingualism on Intelligence. British Journal of Psychology, 1923.
6. Cummins J. Bilingualism and the Development of Metalinguistic Awareness. Journal of Cross-Cultural Psychology, 1979.
7. Skutnabb-Kangas T., Toukomaa P. Teaching Migrant Children's Mother Tongue and Learning the Language of the Host Country in the Context of the Socio-Cultural Situation in Finland. Helsinki: Finnish National Commission for UNESCO, 1976.